



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**NAMANGAN VILOYATIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-fevral***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 69-227-84-95***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 316 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 86 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 230 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-fevral oyida tumanlarning chakana savdo tovar aylanmasi 2 809,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 110,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 175,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 633,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 372,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 120,4 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	2 809,3	110,2
Namangan shahar	1 232,2	109,3
tumanlar:		
Mingbuloq	78,6	106,4
Kosonsoy	137,3	111,5
Namangan	135,0	109,8
Norin	120,0	111,2
Pop	172,9	108,1
To'raqo'rg'on	189,5	111,7
Uychi	141,6	111,0
Uchqo'rg'on	123,0	111,8
Chortoq	109,7	112,4
Chust	207,0	113,0
Yangiqo'rg'on	162,5	112,5


2024- yilning yanvar-fevral oyida 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan tumanlarning Chust (113,0 %), Yangiqo'rg'on (112,5 %) va Chortoq (112,4 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-fevral)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024 yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,2% ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-fevral uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-fevral oyida o'sish sur'ati **110,2 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 43,9 % bilan 1232,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mingbuloq 2,8 % bilan 78,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2633,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 9,8 % ga oshdi. Namangan viloyatida miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,7 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 18,0 % ga o'sdi va 175,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,3 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi (98,9 %), Kosonsoy(98,7 %), Mingbuloq(97,0 %) va Yangiqo'rg'on(96,6 %) tumanlarida yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush To'raqo'rg'on (13,5 %), Namangan shahar(7,1 %), Chust(7,1 %), Pop(6,2 %) tumanlarida kuzatildi.

6,3 %

93,7 %

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma‘lumot, *ming so‘mda*Namangan
shahar

1792,8

Yangiqo‘rg‘on

692,5

Mingbuloq

579,9

Kosonsoy

609,6

Namangan

708,8

Norin

688,6

Pop

740,5

To‘raqo‘rg‘on

782,0

Uychi

616,1

Uchqo‘rg‘on

670,2

Chortoq


516,0

Chust

732,5

2024- yilning yanvar-fevral oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 387,3 ming. so‘mni (2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 107,8 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (1792,8 ming. so‘m), Pop To‘raqo‘rg‘on (782,0 ming. so‘m) va Pop (740,5 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar tayanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-fevral), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	140,1	110,4
Namangan sh.	43,0	118,4
tumanlar:		
Mingbuloq	4,0	128,4
Kosonsoy	6,4	188,7
Namangan	4,1	113,0
Norin	9,4	99,3
Pop	11,7	126,3
To'raqo'rg'on	12,5	109,7
Uychi	8,8	188,5
Uchqo'rg'on	10,5	106,8
Chortoq	11,6	108,2
Chust	11,5	222,6
Yangiqo'rg'on	6,5	97,3


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari**
(2024- yil yanvar-fevral)














**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm**
(2024- yil yanvar-fevral)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-fevral oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 372,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 120,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 140,1 mlrd. so'mni (110,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 232,8 mlrd so'mni tashkil etdi (105,8 %).













2024-yilning yanvar-fevral oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 140,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (27,2 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>65,8 mlrd. so'm</p>  <p>47,0 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>11,3 mlrd. so'm</p>  <p>8,1 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>16,2 mlrd. so'm</p>  <p>11,2 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>7,0 mlrd. so'm</p>  <p>5,0 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>7,2 mlrd. so'm</p>  <p>5,1 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>3,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,6 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>3,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>6,8 mlrd. so'm</p>  <p>4,9 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>2,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,6 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>3,5 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>1,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,24 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>10,5 mlrd. so'm</p> <p>7,5 %</p>

2024- yilning yanvar-fevral oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 232,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi – 215,1 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 16,0 mlrd. so'mni, otlar –1,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>127,2 mlrd. so'm</p>  <p>54,6 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>47,3 mlrd. so'm</p>  <p>20,3 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>40,6 mlrd. so'm</p>  <p>17,4 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>15,2 mlrd. so'm</p>  <p>6,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,5 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1170 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 168 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	74,4	105,0
Namangan sh.	50,5	114,9
tumanlar:		
Mingbuloq	1,5	114,2
Kosonsoy	1,8	113,5
Namangan	3,2	38,1
Norin	1,5	111,4
Pop	2,9	112,5
To'raqo'rg'on	2,2	111,8
Uychi	1,4	116,0
Uchqo'rg'on	2,2	112,0
Chortoq	1,6	110,9
Chust	4,5	111,8
Yangiqo'rg'on	1,0	110,3

2024- yilning yanvar-fevral oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 74,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Namangan viloyati	495,6	100,0
Namangan sh.	367,2	74,1
tumanlar:		
Mingbuloq	0,7	0,1
Kosonsoy	0,4	0,1
Namangan	2,1	0,4
Norin	2,4	0,5
Pop	20,7	4,2
To'raqo'rg'on	0,6	0,1
Uychi	2,7	0,6
Uchqo'rg'on	0,4	0,1
Chortoq	2,4	0,5
Chust	94,8	19,1
Yangiqo'rg'on	1,4	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Namangan shahri (367,2 mlrd. so'm), Chust (94,8 mlrd. so'm) va Pop (20,7 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024 yilning yanvar-fevral oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 495,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 168,2 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 138,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 327,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 110,1 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1486,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 220,4 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,7 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 82,4 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2534 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 26 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2508 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Chust (126,8), Norin (121,9) va Namangan sh. (119,2) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	1486,6	114,4
Namangan sh.	891,6	119,2
tumanlar:		
Mingbuloq	21,7	75,5
Kosonsoy	78,9	105,7
Namangan	49,5	95,2
Norin	58,4	121,9
Pop	56,4	107,0
To‘raqo‘rg‘on	89,7	118,7
Uychi	71,1	105,5
Uchqo‘rg‘on	18,9	106,6
Chortoq	61,7	107,3
Chust	36,3	126,8
Yangiqo‘rg‘on	52,3	107,4